

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY VA NAZARIY ASOSLARI

Toshmanov X.A

*O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi tinglovchisi*

Annotatsiya. Davlatning yangi tizimni joriy qilishda albatta faoliyatini tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish talab qilinadi. Bunda, mavjud holat va xaorij tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Respublikadagi davlat-xususiy sherikchilik amaliyotining huquqiy faoliya va nazariy asoslari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sherikchilik, ijtimoiy soha, investitsion loyihalar, institutar.

Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar hozirgi davlat olib borayotgan boshqaruv talablariga muvofiq bo‘lib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va shu asosda tarmoqlar, hududlarni rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, jamiyatdagi gumanitar muammolarni hal etish jumladan ishsizlik muammosini bartaraf etishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish, aholining turli qatlamlari huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish albatta davlat xususiy sherikchilik asosida amalga oshirilishi ayni muddao hisoblanadi.

Bugungi rivojlanish jarayonlarida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5430-sonli tarixiy Farmoni va oxirgi ikki yilda qabul qilingan boshqa me‘yoriy - huquqiy hujjatlar nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning mustaqilligini ta‘minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir [1].

Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarni bugungi islohotlar talablarga muvofiq rivojlantirish zaruriyatidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirda ishlab chiqish mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlari bilan davlat o‘rtasidagi hamkorlikni ijtimoiy sheriklik asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va mulk ulushida xususiy mulkning ustuvorligi aholini ijtimoiy himoya qilishning ayrim sohalarida, inovatsion faoliyatni rivojlantirishda, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash kabi bir qator tarmoqlarda davlat va xususiy mulkning hamkorligini talab etadi. Bu jarayonda esa davlat xususiy sherikligi yuzaga keladi.

Shu o‘rinda hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlar Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26- aprelda qabul

qilingan [2], 2019-yil 3-mayda “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risi”dagi qonun ma‘qullangan [3], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-apreldagi 259-sonli “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risi”dagi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi qarori ayni muddaodir. Bunda, ushbu faoliyatni tadqiq qilishni muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

S. E. Elmiraev va boshqalar ta‘kidlaganidek “DXSH Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida DXShgi mamlakat va hududiy miqyosidagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning samarali vositasi bo‘lib, davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan nazoratni ushlab turish va xususiy sektor bilan samarli iqtisodiy hamkorlikni o‘rnatishga qaratilgan investitsion loyihalarga mablag‘lar jalb qilish va amalga oshirish vositasi hisoblanadi. DXSh asosidagi investitsion loyihalarda xususiy sektor davlat tomonidan belgilangan shartlar va talablar asosida investitsion loyihalarni moliyalashtirish va boshqarish vazifalarini amalga oshiradi” [4].

Iqtisodchi olim Djumaniyazov fikriga ko‘ra “DXSH – amaldagi qonunlar doirasida davlatning uzoq muddatli strategik vazifalari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa tavakkalchiliklar, xavf-xatarlar, risklarni taqsimlash asosida xususiy sektor bilan aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, kerak bo‘lsa, siyosiy ahamiyatga molik obyektlarni qurish yoki shu asnodagi ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish uchun xususiy sektor bilan amalga oshiradigan tom ma‘nodagi o‘zaro manfaatli aloqalaridir.”[5]

Shuningdek, rus olimi Beliskayani fikriga ko‘ra “Davlat-xususiy sektor hamkorligi-davlat hokimiyati organlari va tashkilotlari va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlarining bevosita davlat manfaatlari va nazorati sohasidagi ob‘ektlarga nisbatan o‘zaro manfaatli hamkorligi, muhim davlat va jamoat ahamiyatiga ega bo‘lgan loyihalarni samarali amalga oshirish maqsadida hamkorlar o‘rtasidagi xavflarni taqsimlashni nazarda tutadi” deb ta‘riflagan[6].

Xorijiy va mahalliy olimlarning tariflari va tasniflaridan kelib chiqqan holda, DXSh bu – Davlat va muayyan sektor tomonidan davlat infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda yoki modernizatsiya qilish uchun ikki tomonlama tuzilgan aniq muddatli shartnomadir.

DXShning afzalliklaridan biri yangi ish o‘rni yaratib, o‘sha hududning iqtisodiy-ijtimoiy infrastrukturasi yaxshilaydi. Shuningdek, sohaning ushbu sohadagi harajatlarni qisqartirib, iqtisodning raqobatbardoshligini oshiradi. Hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida DXSH ning o‘rni katta. Bu iqtisodiy o‘shish hudud transporti va kommunikatsiya, ishlab chiqarish, sanoat obektlari infratuzilmasi va aholining bandligini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, davlat-xususiy sherikchilik amaliyoti davlatning ijtimoiy loyihalarini xususiy sektor bilan hamkorlikda amalga oshirish orqali davlat

budjetiga tushadigan moliyaviy yukni o‘tqazish hamda fiskal risklarni taqsimlash maqsadidagi tizimdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5430-sonli Farmoni. <https://lex.uz/search/all?actnum=5430&lang=3>
2. O‘zbekiston Respublikasining Davlat-xususiy sherikligi to‘g‘risidagi O‘RQ-537-son Qonuni. 2019 yil 10 may. <https://lex.uz/docs/4329270>
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan 2019-yil 3-mayda “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risi”dagi qonun. <https://lex.uz/docs/-4329270>
4. Elmirzaev S.E., Shavkatov N.Sh. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining ilg‘or xorij tajribalari va mamlakatimizda qo‘llash istiqbollari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun,2019 yil
5. Djumaniyazov Umrbek Ixamovich. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariyuslubiy masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2017 yil
6. Белиская, А.В. Правовые формы государственно–частного партнерства в России и зарубежных странах / А.В. Белиская // Предпринимательское право. – 2009. – №2. – С.21–27
7. Klichev, B. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни такомиллаштириш масалалари. Молия, 2014(5), 10–15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>
8. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITAL ECONOMY AND CHANGES IN BUSINESS ANALYSIS. International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM), 13(12), 47-52. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM4Dec2023-Uzb.pdf>
9. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, 4 (20)-сон, 170-175.
10. Ibragimov Gayratjon Artikovich, Kurbanbaev Jurabek Eruvbayevich, Mukhiddinova Barno Gafurjanovna. (2019). The main differences between IFRS and NSA. International Finance and Accounting, 3(13), 1-12. Retrieved from <https://core.ac.uk/download/pdf/285998049.pdf>
11. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITALIZATION OF THE ECONOMY AND OPERATIONAL SAFETY. International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS), 13 (11), 95-101. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-Nov2023-Uzb.pdf>
12. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALAR HISOBI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI. World Scientific Research Journal, 23(2), 215–222. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3034>
13. Самадова Наргиза Расуловна. (2024). КОРХОНА ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИНГ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ COMPLEX ANALYSIS OF THE ECONOMIC COMPETENCE OF THE ENTERPRISE. World Scientific Research Journal, 23(2), 174–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3030>
14. Gayratjon Ibragimov. (2024). TIJORAT BANKLARIDA MBMB TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI. World Scientific Research Journal, 23(2), 223–230. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3035>

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

15. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting"*, (2), 2181-1016.

16. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). MUQOBIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR . *World Scientific Research Journal*, 23(2), 231–238. Retrieved from

<http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3036>

17. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>

18. Самадова Наргизза Расуловна. (2024). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА БАҲОЛАШ. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 95–104. Retrieved from

<http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3252>

19. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI . *World Scientific Research Journal*, 23(2), 239–246. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3037>

20. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. *Ақтуар молия ва бухгалтерия ҳисоби*, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>

21. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>

22. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Мехнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>

23. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 182–188. Retrieved from

<http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>